



“Globallashuv jarayonida innovatsion ta'lim va milliy tarbiya: integratsiyaga xos muammolar, bahslar va yechimlar”

mavzusidagi

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari TO'PLAMI



Сборник материалов международной


научно-практической конференции на тему:

**«ИННОВАЦИОННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ И НАЦИОНАЛЬНОЕ
ВОСПИТАНИЕ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ: ДИСКУССИИ
И РЕШЕНИЯ ИНТЕГРАЦИОННЫХ ПРОБЛЕМ»**

**“INNOVATIVE AND NATIONAL EDUCATION IN THE
PROCESS OF GLOBALIZATION: PROBLEMS, DISPUTES
AND SOLUTIONS RELATED TO INTEGRATION”**

international scientific-practical conference on a collection of
materials





O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

**“GLOBALLASHUV JARAYONIDA INNOVATSION TA’LIM VA
MILLIY TARBIYA: INTEGRATSIYAGA XOS MUAMMOLAR,
BAHSLAR VA YECHIMLAR”**

**mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
materiallari to‘plami**

**Сборник материалов международной научно-практической
конференции на тему: «ИННОВАЦИОННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ И
НАЦИОНАЛЬНОЕ ВОСПИТАНИЕ В УСЛОВИЯХ
ГЛОБАЛИЗАЦИИ: ДИСКУССИИ И РЕШЕНИЯ
ИНТЕГРАЦИОННЫХ ПРОБЛЕМ»**

**“INNOVATIVE AND NATIONAL EDUCATION IN THE PROCESS
OF GLOBALIZATION: PROBLEMS, DISPUTES AND
SOLUTIONS RELATED TO INTEGRATION”
international scientific-practical conference on
a collection of materials**

O‘zbekiston, Termiz shahri,

27-may 2023-yil

W m 11
Tashkilot nomi



1. Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi, Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31-dekabr, 1059-sonli qaror.
2. Barkamol avlod orzusi / Tuzuvchilar: SH.Qurbonov, R.Ahlitdinov, H.Saidov. – Toshkent, SHarq nashriyot-matbaa kontserni, 1999.
3. M.X.Toxtaxodjaeva va boshqalar. Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1-qism. Pedagogika nazariyasi / Prof. M.X.Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. – Toshkent: "Iqtisod-moliya", 1996.
4. O. Hasanboyeva va boshqalar, Oila pedagogikasi. Toshkent. Aloqachi nashryoti 2007.
5. K.Xoshimov, S.Nishanova. Pedagogika tarixi. Alisher Navoiy nomidagi milliy kutubxona 2005
6. Oliy ta'lim: me'yoriy hujjatlar to'plami. – Toshkent: SHarq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2001.
7. Ochilov M, O'qituvchi odobi. – Toshkent: O'qituvchi, 1998.

GEOGRAFIYANI O'QITISHDA MUSTAQIL TA'LIMNING O'RNI VA AHAMIYATI

*Abdimurotov Oybek Uralovich, ChDPU Geografiya kafedrasida dotsent v.b.
p.f.f.d (PhD)*

Annotatsiya: Maqolada oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'limning maqsadi va vazifalari, bo'lajak geografiya o'qituvchilarining mustaqil ta'limni rejalashtirish, tashkil qilish shakllari, ularning o'rni va ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Mustaqil ta'lim, kreativ topshiriqlar, pedagogik texnologiya, kompetensiya, axborot izlash, o'qituvchi, talaba.

Oliy ta'lim tizimining asosiy vazifasi o'z-o'zini rivojlantirish, tarbiyalash va innovatsiyalarga qodir bo'lgan, muammolarga ijodiy yondosha oladigan yetuk mutaxassis kadrlarni shakllantirishdan iborat. Bu vazifalarni o'qituvchidan talabaga tayyor shaklda o'tkazish orqali hal qilish juda qiyin masaladir. Shu boisdan talabalarni passiv bilim olishdan muammoni shakllantirish, uni yechish yo'llarini tahlil qilish, unga nisbatan o'z fikrlarini bildirish, optimal natijani topish va uning to'g'riligini isbotlay oladigan faol bilim yaratuvchisiga o'tkazish zarur. Buning uchun hozirgi oliy ta'lim islohoti ya'ni o'qitish paradigmasidan ta'lim paradigmasiga o'tish jarayonida talabalarning mustaqil ta'limi nafaqat o'quv jarayonining muhim shakli, balki uning asosiga aylanishiga erishish lozim. Sababi, o'quv jarayoni sifatini oshirishda mustaqil ta'limning roli benihoya katta, pedagogdan tayyor ma'lumot olgandan ko'ra mustaqil faoliyat jarayonida olgan bilimni o'zlashtirish nisbatan ancha yaxshi samara beradi.

Hozirgi davrda ta'lim tizimi oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarish, talabalarning mustaqil ta'lim jarayonida o'quv materiallarini o'zlashtirish, ularning amaliy kompetensiyalarini hamda kasbiy kompetentligini rivojlantirish, aqliy qobiliyatlarini rag'batlantirish va ijodiy faolligini tarbiyalashda pedagoglarning mas'uliyatini oshirishi zarur. Sababi, o'qituvchi o'z faning nazariy asoslaridan kelib chiqib, mustaqil ta'limni tashkil etishda uning qaysi turi yoki qaysi shaklidan foydalanishni aniqlab, kreativ fikrlashga va ijodiy yondashishga undovchi topshiriqlarni tuzishi katta ahamiyat kasb etadi.

Shu boisdan o'qituvchi va talaba mustaqil ta'lim ularning manfaati uchun olib borilishini tushunishi kerak. Talaba bajarayotgan mustaqil ta'lim topshiriqlari o'qituvchi uchun emas, balki o'zi uchun, uning kelajakdagi muvaffaqiyatini ta'minlashining asosiy omili ekanligini tushunishi kerak. O'qituvchi esa mustaqil ta'lim faqatgina talaba uchun emas, balki o'zi uchun ham kerak ekanligi, o'zini ishini

osonlashtirish, mustaqil fikr yurita oladigan talabalar bilan muloqotda bo'lib, o'z bilimini boyitish va kelajakda xizmat pog'onalarida o'sishini ta'minlashini anglashi lozim. Shu bilan bir qatorda, o'qituvchining o'quv jarayonida talabalar bilan hamkorligi, ularning mustaqil ta'limga ishonchini shakllantirishi, o'qitishning yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanayotganini ko'rsata olishi, ma'ruzalarni a'nanaviy, ya'ni faqatgina ma'lumot berish bilan chegaralanmasdan, balki muammoli interaktiv usulda olib borishi kutilayotgan ijobiy natijalarga olib keladi.

Oliy ta'limda mustaqil ta'limni faollashtirmasdan talabalarni samarali o'qitishni ko'z oldimizga keltirish qiyin. Shu boisdan ham bo'lajak geografiya o'qituvchisidan yuqori darajadagi tayyorgarlik, mustaqil ravishda qarorlar qabul qila olish, belgilangan vazifalarni bajarish uchun ko'p ma'lumotlar orasidan kerakligini tanlab olish, bu ma'lumotlarni qayta ishlay olish va geografik tahlil qilish talab qilinadi. Shunday ekan, talabalarining ta'lim olishda an'anaviy o'qitish usulidan mustaqil faoliyatiga jalb qilish lozim. Lekin bunda mustaqil ta'lim jarayonida talabani o'z holiga tashlab qo'yish emas, balki o'qituvchi tomonidan muntazam boshqariladigan talabalarining mustaqil bilim olish faoliyati yuzaga kelishi kerak. Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, har bir pedagog faqatgina o'zining fanini asosiy deb hisoblamasdan, talabaning mustaqil ta'limga ajratilgan vaqti o'quv rejadagi barcha fanlar uchun ajratilganligini esdan chiqarmasligi kerak, aks holda talabalarga keragidan ortiq berilgan vazifa mustaqil ta'limdan kuzatilgan ijobiy natija o'rniga, aksincha salbiy natijaga olib kelishi mumkin.

Mustaqil ta'limni to'g'ri va samarali tashkil qilish uchun avvalombor uning maqsad va vazifalarini talabalarga tushintirish lozim.

Talabalarining mustaqil talimini tashkil etishdan asosiy maqsad fan (modul) bo'yicha o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash, boyitish, amaliy ko'nikma va malakalarni takomillashtirish, axborot bilan ishlash, o'z-o'zini rivojlantirish, kognitiv, kreativ, hamkorlikda ishlash kompetensiyalarini rivojlantirish hamda ma'lumotlar izlab topish usuli bilan bilim olishni rivojlantirish, o'quv jarayoniga ijodiy yondashishga faol qiziqishni shakllantirishdan iboratir. Shuningdek, talaba mustaqil ishining maqsadi o'qituvchi rahbarligi va nazorat ostida talabada muayyan o'quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishdir.

Talabalarining mustaqil talimini tashkil etish quyidagi vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishga xizmat qilishi lozim:

- auditoriyadagi mashg'ulotlarda olgan bilimlarini mustahkamlash, chuqurlashtirish, kengaytirish va tartibga solish, o'quv materiallarini mustaqil o'rganish;

- talabalarda o'z-o'zini rivojlantirish, mustaqil bilim olish va innovatsion faoliyatni shakllantirishga imkon beruvchi kompetensiyalarni egallash maqsadi bilan bog'liqlikda mustaqil o'quv faoliyatini amalga oshirish;

- yangi bilim olish usullarini egallash, ma'lumotlarni mustaqil tahlil qila olish, olgan bilimlarini amaliyotda qo'llay olishni rivojlantirish;

- bilim, ko'nikma va malakalarni mustaqil egallash, muammoni shakllantira olish va uni hal etishning maqbul yo'llarini izlab topishga qobiliyatli kreativ shaxsni tarbiyalash;

- mustaqil fikr yuritish ko'nikmasini, bilim orttirish faolligini, ijodiy tashabbusini, o'z-o'zini o'stirishini, tadqiqot qila olish qobiliyatini rivojlantirish.

- talabalarda o'quv dasturini o'zlashtirishga doir motivatsiyani hosil qilish, talim oluvchilarda bilim olishga doir masuliyatni oshirish;

- talabalarda umummadaniy va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga imkon berish;

- internet tarmog'idan maqsadli foydalanish, elektron o'quv adabiyotlar bilan ishlash, berilgan topshiriqning ratsional yechimini belgilash;

- talim oluvchilarda mustaqil bilim olish, o'z-o'zini boshqarish va o'z-o'zini rivojlantirishga qobiliyatlikni shakllantirish uchun sharoit yaratish.

Yuqorida sanab o'tilganlar talabalarni mustaqil ravishda referat, kurs ishlari, kurs loyihasi, bitiruv malakaviy ishi va magistrlik dissertatsiyalarini tayyorlayotganlarida ishning maqsadi va vazifalaridan kelib chiqib, oldiga qo'ygan muammolarni chuqur tahlil qilib, o'rganib, o'zlarining mustaqil asoslangan fikr va xulosalarini bildirishlariga yordam beradi.

Mustaqil ta'limning asosini mustaqil ishlar tashkil etadi. Talabalar bajaradigan mustaqil ishlarga quyidagi metodik talablar qo'yiladi:

- Mustaqil ish talabalar qobiliyati va tayyorgarligiga mos, ular uddasidan chiqa oladigan, ayni vaqtda ularning fikrlash qobiliyatini, ijodiy tashabbusini rivojlantiradigan bo'lishi kerak.

- Talabalarning mustaqil ishlari ilgari egallagan bilim, ko'nikma, shuningdek tajribalaridan foydalanishini taqozo etadigan hamda, ularni yanada rivojlantiradigan bo'lishi lozim.

- Mustaqil ishlarning turi va mazmuni talabalarning tayyorgarligiga va induvidual xususiyatlariga mos kelishi shart.

- Mustaqil ishlar mazmuni xilma – xil va qiziqarli bo'lishini nazarda tutish kerak. Ularning natijasi talabalarga yangilik berishi shart.

- Har bir mustaqil ish natijasi o'z vaqtida tahlil qilinishi, muhokama qilib baholanishi, mustaqil ish natijalaridan esa ta'lim jarayonida foydalanish maqsadga muvofiqdir.

- Mustaqil ishlar quyi kurslardan yuqori kurslarga tomon asta - sekin murakkablashib borishi lozim.

Masalan, Materiklar va okeanlar geografiyasi kursida talabalarning mustaqil ishlari uchun oddiy xulosalar chiqarishga oid topshiriqlar berish mumkin. Masalan: turli iqlim tiplarini xarakterlovchi raqamli ko'rsatkichlar asosida talabalar (ilgari egallagan bilimlarga tayangan holda) iqlim tiplarini aniqlashlari, tegishli xulosalar chiqarishlari mumkin. Talabalardan quyidagi topshiriqqa ham javob talab etish mumkin: "Atlasdagi tegishli mavzuli kartalarni tahlil qilib, Shimoliy Amerikaning 50° va 60° shimoliy kengliklari oralig'idagi Tinch okean sohilining iqlimi va uning tarkib topishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlang".

O'zbekiston tabiiy geografiyasi kursida mustaqil ishlar yanada murakkablashib, ta'lim jarayonidagi salmog'i ortib boradi. Talabalardan sabab-oqibat bog'lanishlarni belgilashni talab etish mumkin. Masalan, Chirchiq-Ohongaron tabiiy geografik o'kasining iqlimini tavsiflashda, iqlimining shimoli-sharqdan, janubi-g'arbga tomon

kontinentlashib borishining sabablarini tushuntirib berishni talabalardan talab etish mumkin.

Talabalarining mustaqil ish bajarishdagi faolligi, ishning samarasi ko'pincha beriladigan topshiriqqa ham bog'liqdir, binobarin, mustaqil ish topshiriqlariga muayyan talablar qo'yiladi:

1. Muhim tushuncha, sabab - oqibat bog'lanishlar, dunyoqarash, g'oyalarni aks ettirishga, ya'ni kurs mavzularining ta'limiy - tarbiyaviy maqsadlarini bajarishga yo'naltirilgan bo'lishi mumkin.

2. Topshiriqlar bilimlarning barcha komponentlarini qamrab olgan bo'lishi kerak.

3. Turli ta'lim vositalari: darslik, qo'shimcha adabiyotlar, turli mazmundagi geografik kartalar bilan birga suratlar, rasmlar, ekranli qo'llanmalar, televideniya eshittirishlari, foydali qazilmalar, namunali gerbariylar, statistik ma'lumotlar bilan mustaqil intilish ko'nikmalarni shakllantirishni ta'minlash.

4. Talabalarining bilim qobiliyatlarini rivojlantirish va ijodiy fikrlashga imkon berish.

5. Talabalarda geografiyaga qiziqish uyg'otish.

Talabalarining mustaqil ishlari o'ylab tuzilgan topshiriqlar sistemasi asosida va muntazam ravishda olib borilgandagina samara beradi.

Mustaqil ta'lim talabalarining o'quv faoliyatlarida, turli didaktik masalalarni hal etishda, nazariy bilimlarni shakllantirishda, geografik qonuniyatlarni aniqlashda, bilim va ko'nikmalarni egallash va amalda tadbiq etishda olib boriladi. Mustaqil ta'lim o'quv jarayonining barcha bosqichlarida, talabalarining bilim va ko'nikmalarni tekshirishda, yangi materiallarni o'rganishda, uni mustahkamlashda, takrorlashda, shuningdek ekskursiyada tadbiq etilishi mumkin.

Umuman mustaqil ta'lim katta ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega. Mustaqil ta'lim talabalarining aqliy faoliyatini rivojlantiradi, o'rganilgan masalani chuqurroq o'ylashga, uning eng muhim qismini izlashga, yakun yasab xulosalar chiqarishga imkon beradi. Mustaqil ta'limsiz mustahkam va ongli bilim berish, tegishli ko'nikma va malakalarni hosil qilish, mustaqil bilim olishni ta'minlab bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdimurotov, O. U. (2021). "Yevrosiyo materigi" ni o'qitishda "keys stadi" metodidan foydalanish usullari. Academic research in educational sciences, 2(1), 377-382.

2. Uralovich, A. O. (2021). Forms of organization of practical trainings in geography classes and their purpose, tasks and importance. World Bulletin of Social Sciences, 4(11), 89-94.

3. Abdimurotov, O. U. (2022). Improving the Methodology of Working with a Map in the Process of Organizing Independent Education in Geography Courses. Journal of Pharmaceutical Negative Results, 1725-1729.

4. Абдимуротов, О. У. (2022). Модулли таълим технологияси асосида табиий география курсларида амалий машғулотларни ташкил этиш методикаси. Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali, 21-27.

5. Uralovich, A. O. (2021, November). Problems of geography education in uzbekistan. In Archive of Conferences (pp. 65-69).

6. Oybek Uralovich Abdimurotov (2021). "Yevrosiyo materigi"ni o'qitishda "keys stadi" metodidan foydalanish usullari. Academic research in educational sciences, 2 (1), 377-382. doi: 10.24411/2181-1385-2021-00048

237	Sharq adabiyotida ta'lim tarbiyaga oid qarashlar Xurramova Iroda Baxriddin qizi, Termiz davlat pedagogika instituti <i>Pedagogika yo'nalishi talabasi</i>	734
238	Fizika laboratoriya darslarida eksperimental ko'nikmalarni shakllantirish metodikasi Djumayeva Gulnoza Saidovna, Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi	736
239	Alisher Navoiy asarlarida komil inson g'oyasi va insonparvarlik masalalari Soatova Rayxona Sadridin qizi, Termiz davlat pedagogika instituti <i>Pedagogika yo'nalishi talabasi</i>	738
240	Zamonaviy pedagogikada milliy tarbiyaning o'rni va uni uzluksiz ta'lim jarayonidagi ahamiyati Abdukarimova Zuxra, Termiz pedagogika instituti pedagogika va psixologiya yo'nalishi talabasi	740
241	Geografiyani o'qitishda mustaqil ta'limning o'rni va ahamiyati Abdimurotov Oybek Uralovich, ChDPU Geografiya kafedrasida dotsent v.b. p.f.f.d (PhD)	743
242	O'quvchilarga darslarda logarifmlash va uning tadbirlarini o'rgatishda qiziqarli masalalardan foydalanish Eshmuminova Dilbar Oral qizi, Termiz davlat universiteti magistranti. Davranov Odil Jumanazarovich, Termiz davlat universiteti o'qituvchisi	747
243	Informatika darslarida o'quvchilar tafakkurini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish (umumta'lim maktablari misolida) Shuxrat Okboyevich Xolmurodov, Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi	749
244	Talaba-yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning nazariy va amaliy asoslari Samiyev Asroridin Sayfidinovich, Pedagogika fanlarni bo'yicha falsafa doktori (PhD) v.b dotsent. Saidova Zarnigor Toshbobo qizi, Pedagogika nazariyasi va tarixi mutaxassisligi magistranti Termiz davlat Pedagogika instituti	752
245	Umumta'lim maktablarining v-vi sinflarida aniq va tabiiy fanlarini integrativ yondashuv orqali o'qitishda innovatsion ta'limning roli Avliyoqulov Abdug'afur Abdug'anievich, TerDU katta o'qituvchisi	754
246	So'fi Olloyor asarlarining yosh avlodni ma'naviy va axloqiy tarbiyalashdagi o'rni va ahamiyati	757